



THE FIRST INNOVATIVE REFORMS IN THE SCHOOL EDUCATION SYSTEM IN TASHKENT

Tashpulatova Dilfuza Xadjumuratovna

2nd year master degree of the Faculty of history of the University of Exact and Social Sciences

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14065146>

ARTICLE INFO

Received: 04th November 2024

Accepted: 10th November 2024

Online: 11th November 2024

KEYWORDS

Tashkent, school education, innovative reforms, information and communication technologies, lyceum and gymnasium, pedagogical technologies, quality of education, practical skills.

ABSTRACT

This article is dedicated to studying the innovative reforms in the school education system in Tashkent, implemented between 1992 and 1997. During the years of independence, Uzbekistan introduced modern pedagogical technologies and new academic subjects into the education system, aiming to improve the quality of education, which were first tested in Tashkent. Schools adopted information and communication technologies, and lyceums and gymnasiums were established to strengthen students' practical skills. Tashkent's schools served as a testing ground for new pedagogical approaches and an experimental center for the future development of the republic's education system.

ПЕРВЫЕ ИННОВАЦИОННЫЕ РЕФОРМЫ СИСТЕМЫ ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ТАШКЕНТЕ

Ташпулатова Дилфуза Хаджумуратовна

Магистрант 2-го курса Исторического факультета университета

Точных и Социальных наук

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14065146>

ARTICLE INFO

Received: 04th November 2024

Accepted: 10th November 2024

Online: 11th November 2024

KEYWORDS

Ташкент, школьное образование, инновационные реформы, информационно-коммуникационные технологии, лицей и гимназия, педагогические технологии, качество образования, практические навыки.

ABSTRACT

Настоящая статья посвящена изучению инновационных реформ в системе школьного образования в Ташкенте, осуществленных в 1992-1997 годах. В годы независимости в образовательную систему Узбекистана были внедрены современные педагогические технологии и новые учебные дисциплины, направленные на повышение качества образования, и впервые опробованы в Ташкенте. В школах внедрялись информационно-коммуникационные технологии, создавались лицеи и гимназии с целью укрепления практических навыков учащихся. Школы Ташкента служили центром испытаний новых педагогических



подходов и накопления опыта для будущего развития системы образования республики.

TOSHKENTDA MAKTAB TA'LIM TIZIMINING ILK INNOVATSION ISLOHOTLARI

Tashpulatova Dilfuza Xadjumuratovna

AIFU tarix fakulteti II kurs magistr talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14065146>

ARTICLE INFO

Received: 04th November 2024

Accepted: 10th November 2024

Online: 11th November 2024

KEYWORDS

Toshkent, maktab ta'limi, innovatsion islohotlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, litsey va gimnaziya, pedagogik texnologiyalar, ta'lim sifati, amaliy ko'nikmalar.

ABSTRACT

Mazkur maqola Toshkentda 1992-1997-yillarda amalga oshirilgan maktab ta'limi tizimidagi innovatsion islohotlarni o'rganishga bag'ishlangan. Mustaqillik yillarida O'zbekiston ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va yangi fanlar joriy etilib, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar Toshkent shahrida ilk bor sinovdan o'tkazilgan. Maktablarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, litsey va gimnaziyalarni tashkil etish orqali o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini kuchaytirish maqsad qilingan. Toshkent shahridagi maktablar yangi pedagogik yondashuvlarni sinovdan o'tkazish va respublika ta'lim tizimining kelgusi rivoji uchun tajriba markazi sifatida xizmat qilgan.

KIRISH. Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda maktab ta'limi tizimini isloh qilish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mamlakat rahbariyati ta'lim sohasidagi muammolarni hal etish va global ilm-fan yutuqlarini joriy etishni ustuvor vazifa qilib qo'ydi. Bu jarayonda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar maktab ta'limida muhim o'rin tuta boshladi. 1992-1997-yillar O'zbekiston ta'lim tizimining yangilanish va sinov davri bo'lib, ushbu davrda amalga oshirilgan islohotlar asosan maktab ta'limini zamonaviy talablarga moslashtirishga qaratilgan edi.

Toshkent shahri, respublika ta'lim tizimida markaziy o'rin tutishi bilan bir qatorda, birinchi bo'lib innovatsiyalarni joriy etishda yetakchi rol o'ynadi. Shu davrda mamlakat poytaxtidagi maktablarda yangi turdagi ta'lim muassasalari — litseylar va gimnaziyalar tashkil etildi, o'quv dasturlari zamonaviy talablarga moslab qayta ko'rib chiqildi va o'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy qilindi. Bu chora-tadbirlar ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning bilim darajasini kuchaytirish va ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash yo'lidagi birinchi qadamlar bo'ldi.



Asosiy qism. Buyuk jadid ma'rifatparvari Mahmudxo'ja Behbudiyning: "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur" degan fikri mustaqillikning dastlabki yillarida ta'lim tizimining rivojlanishiga qaratilgan asosiy g'oyalardan biriga aylandi¹. Zamonaviy ilm-fan yutuqlarini maktab ta'lim tizimiga joriy etish, ayniqsa, Toshkentdagi umumta'lim muassasalarida bu jarayon dolzarb masala sifatida e'tiborga olindi.

Toshkent shahrida maktab ta'limi tizimida 1992–1997-yillar davri "yangilanish va sinov davri" sifatida alohida ahamiyatga ega. Bu davrda maktab ta'limi oddiylikdan murakkablikkacha bo'lgan jarayonlar orqali o'zgardi va modernizatsiya qilindi. 1992-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun asosida Toshkentda maktablar faoliyatining huquqiy va ma'naviy bazasi yaratildi. Bu davrda qo'llanilgan innovatsion yondashuvlar maktab ta'limidagi sinovlar va tajribalar orqali o'z samarasini berdi².

Toshkent shahri ta'lim tizimining markaziy shahar sifatidagi ahamiyati katta bo'lib, bu yerda ilk innovatsion maktablar tashkil etildi va joriy etilgan yangi o'quv rejaları samarali tarzda sinovdan o'tkazildi. Shu davrda zamonaviy fan va texnologiyalarning maktab dasturlariga joriy qilinishi Toshkentda maktablarning o'quv jarayoniga yangicha yondashuvlar olib kirdi.

Ma'lumki, 1991-yilda O'zbekistonda jami 8438 ta maktab faoliyat yuritib, ularning katta qismi qishloq hududlarida joylashgan edi. Toshkent shahridagi maktablar soni esa mamlakatdagi ta'lim tizimining umumiy ko'rsatkichlari orasida muhim o'rin tutadi. Jumladan, 8438 maktabning 1624 tasi shaharlarda joylashgan bo'lib, shundan 68 tasi to'liqsiz o'rta va 1556 tasi to'liq o'rta maktablar edi. Qishloq hududlaridagi 6814 maktabning 1183 tasi to'liqsiz o'rta va 5467 tasi to'liq o'rta maktablar edi.

Toshkent shahri mamlakatning yirik ta'lim markazlaridan biri sifatida doimo alohida ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Bu yerdagi maktablar respublikaning boshqa hududlariga nisbatan zamonaviy ta'lim texnologiyalari va metodikalarni joriy etishda yetakchilik qilgan. Toshkentdagi maktablardagi ta'lim jarayonlari, ayniqsa, yangi fanlar va pedagogik texnologiyalarning joriy qilinishi orqali faol ravishda rivojlantirilgan³. Qolganlari esa sog'lig'ida nuqsoni bo'lgan va alohida parvarish qilinadigan bolalarga mo'ljallangan maktab-internatlar edi.

1991/1992 o'quv yilida Toshkent shahrida maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha dastlabki islohotlar amalga oshirila boshlandi. Bu davrda kunduzgi umumta'lim maktablari tarmog'ini kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan bog'liq iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramasdan, ta'lim sohasini rivojlantirish va uning zamonaviy talablarga mos kelishi uchun bir qator choralar ko'rildi. 1993-yilga kelib, respublika bo'ylab 8745 ta maktabda 4 mln. 639,9 ming o'quvchi maktab ta'limiga qamrab olingan bo'lsa, Toshkentda ham o'quvchilar soni va maktablar tarmog'i sezilarli darajada kengaydi.

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият - энгилмас куч. - Тошкент: Маънавият, 2008. - Б.95.

² O'zbekiston Respublikasining 02.07.1992-yildagi "Ta'lim to'g'risida"gi 636-XII-son Qonuni <https://lex.uz/docs/56418>; O'zbekiston Respublikasining 29.08.1997-yildagi "Ta'lim to'g'risida"gi 464-I-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/16188>.

³ O'zMA. M-26-fond, 1-ro'yxat, 108-yig'ma jild, 17-varaq.



Bu davrda yangi turdagi ta'lim muassasalarining tashkil qilinishi muhim yangilik bo'ldi. Xususan, Toshkent shahrida ham gimnaziya va litseylarning tashkil etilishi muhim bosqich bo'ldi. 1991-yilda respublika bo'ylab 8 ta gimnaziya va litseylar tajriba tariqasida faoliyat yurita boshlagan bo'lsa, 1992-yilga kelib ularning soni 62 taga yetdi. Toshkentdagi maktablar ham mazkur yangi turdagi ta'lim muassasalari tizimiga kiritilib, ularda fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'qitish yo'lga qo'yildi⁴. Ya'ni, umumta'lim samadorligini oshirishga bo'lgan harakatlar yorqin namoyon bo'ldi. Fanlar chuqurlashtirilgan holda o'qitiladigan maktablar soni 1991-yilda 777 ta bo'lsa, 1992-yilga kelib 897 taga yetdi, birinchi smenada o'quvchilar sonining oshib borishiga erishildi. 1991-yilda 74,2%dan 1993-yilda 75,4% ga ko'tarildi⁵.

Bu davrda Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ta'lim mazmunini zamonaviy standartlar va talablarga moslashtirish, maktab faoliyatini demokratlashtirish yo'lida quyidagilarni amalga oshirishga harakat qilindi: byurokratizm va formalizmdan holi boshqaruvning moslashuvchan, muttasil rivojlanuvchi tarkibini shakllantirish; markazlashtirilgan boshqaruvning dastlabki bo'g'ini hisoblangan mahalliy tashabbuskor kuchlarga e'tibor qaratilgan holda vazifalar ko'p tarmoqli asosda hal qilinishini ta'minlash va b.

Respublika O'quv-metodik markazi qoshida "Ta'lim sohasiga kiritilayotgan ped.texnologiya yangiliklarini tahlil qilish va o'rganish kabineti" tashkil qilindi. Yangilangan "Iqtidorli bolalarni tanlash va ularga ta'lim-tarbiya berishni ta'minlash" dasturiga ko'ra iqtidorli bolalarning kartotekasi shakllantirildi. Natijada yuqori sinflarning iqtidorli o'quvchilari ilk bor test sinovlari orqali saralanib, yangi turdagi o'quv muassasalari - gimnaziya va litseylarga qabul qilindi⁶.

1992-yildan boshlab Toshkent shahrida va boshqa hududlarda innovatsion ta'lim muassasalarini amaliyotga tatbiq etish jarayoni yo'lga qo'yildi. Bu jarayonning boshlanishi ta'lim tizimidagi islohotlarning muhim bosqichini tashkil etdi. Toshkent shahrida ham ilk marotaba innovatsion ta'lim muassasalari sinovdan o'tkazilib, yangi bilim berish usullari joriy etildi⁷. Xususan, 1992/1993 o'quv yilida Xalq ta'limi vazirligi tashabbusi bilan mahalliy innovatorlar takliflari asosida respublikaning turli hududlarida innovatsion maktablar faoliyati e'tirof etildi⁸.

Toshkent shahridagi Sirg'ali tumanida joylashgan 300-litsey maktabi buning yorqin misoli bo'lib, uning direktori Dilshoda Abdunazarova rahbarligida maktab innovatsion yondashuvlar asosida ish olib bordi. Bu litsey maktabi zamonaviy ta'lim texnologiyalari va yangi o'quv dasturlari asosida faoliyat yuritib, o'quvchilarning bilim darajasini oshirishga katta hissa qo'shdi. Toshkent shahri maktablari o'quv jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llab, o'quvchilarni jamiyatga moslashtirishga va ularning ijtimoiy-iqtisodiy ko'nikmalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratdi.

Toshkent shahri maktablarida ushbu jarayon alohida ahamiyat kasb etdi. Ta'lim tizimiga kompyuterlashtirish jarayonini kiritish, maktablarda AKTlardan foydalanish samaradorligini

⁴ O'zMA. M-26-fond, 1-ro'yxat,143-yig'ma jild, 31-varaq

⁵ O'sha joyda

⁶ O'zMA. M-26-fond, 1-ro'yxat,143-yig'ma jild, 34-varaq.

⁷ Maktab o'qituvchilar jamoasida respublikaga tanilgan o'qituvchilar ko'pchilikni tashkil etgan..

⁸ Litsey maktabi yangi tipdagi ta'lim muassasasi hisoblanib, 1990-yilda ish faoliyatini boshlagan.



oshirish maqsadida maxsus ishchi guruhlar tuzildi. Bu ishchi guruhlar rahbarligida ta'lim tizimini to'liq kompyuterlashtirish, AKTlarni o'quv jarayoniga tatbiq etish, shuningdek, metodik va boshqaruv qo'llanmalarini yaratish ishlari olib borildi.

Shuningdek, Toshkent maktablari o'rtasida "markaz-maktab prinsipi" joriy etildi, bu esa faol maktablarning yaqin hududlardagi kompyuterlashtirilmagan maktablar bilan hamkorligini ta'minladi. Yangi fanlardan biri sifatida "Informatika asoslari va hisoblash texnikasi" kiritilib, mazkur fan asosida o'quvchilarning kompyuter savodxonligi oshirildi. Bu o'zgarishlar Toshkentdagi maktablarda zamonaviy ta'limni rivojlantirish va yosh avlodni texnologik savodxonlikka o'rgatishda muhim qadam bo'ldi⁹.

1992-yil 27-28-fevralda Toshkent shahrida O'qituvchilar assotsiatsiyasi va "Istiqbol" informatika mutaxassislari hamkorligida ta'lim jarayonini kompyuterlashtirish va AKTni joriy qilish muammolari bo'yicha muhim tashkiliy syezd bo'lib o'tdi. Bu syezdda ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo'llanilishini rivojlantirish va kompyuterlashtirish borasida Toshkent shahridagi 40-maktab bazasida dastlabki informatikaga chuqurlashtirilgan eksperimental litsey tashkil etildi. Ushbu litseyning boshqaruv ishlari "Istiqbol" Assotsiatsiyasi va O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi zimmasiga yuklatildi.

Toshkent shahri, shuningdek respublika bo'ylab AKTlarni maktab ta'limiga joriy qilish jarayonida ushbu litsey faoliyati katta ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, pedagoglar uchun o'zbek tilidagi metodik dasturlar, darsliklar va uslubiy qo'llanmalarni yaratish uchun mualliflar jamoalari tashkil qilindi.

Xulosa qilib aytganda, Toshkentda 1992-1997-yillarda amalga oshirilgan maktab ta'limi islohotlari O'zbekistonda ta'lim tizimini yangilash va rivojlantirishning muhim asoslarini yaratdi. Ushbu davrda yangilangan qonunlar, joriy qilingan yangi fanlar va ilg'or pedagogik texnologiyalar ta'lim sifatini sezilarli darajada yaxshilashga imkon berdi. Maktablarda yangi turdagi litseylar va gimnaziyalarning tashkil etilishi hamda AKTlardan foydalanish tizimining keng joriy qilinishi o'quvchilarning nafaqat nazariy, balki amaliy ko'nikmalarini ham oshirdi.

Mazkur innovatsion islohotlar Toshkent maktablarining keyingi rivojlanish bosqichiga tayyorgarlik vazifasini bajardi va mamlakat ta'lim tizimidagi strategik o'zgarishlarga zamin yaratdi. Innovatsiyalarning tatbiq etilishi, pedagoglar va o'quvchilar uchun yangi imkoniyatlarni ochib berib, ularning kelgusidagi rivojlanishlari uchun mustahkam asos yaratdi.

References:

1. Абдуллаева К. Миллий бошланғич мактаб қандай бўлади? // Маърифат. 1992 йил 4 апрель;
2. Ахлидинов Р. Баркамол авлод - келажак таянчи//Халқ сўзи. 2010 йил 29 январь.
3. Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълимда замонавий ахборот технологияларини жорий этишнинг илмий-назарий асослари.
4. Всемирная декларация об образовании для всех. - Тайланд: Джомтиен, 1990. - С.4.
5. Доклад о человеческом развитии «Здоровье для всех». - Париж:ПРООН, 2006. - С.7.

⁹ O'zMA. M-26-fond, 1-ro'yxat, 8-yig'ma jild, 87-varaq.



6. Зарипов Б. Илму маърифат - истиқлол таянчи // Халқ сўзи. 1994 йил 23 февраль;
7. Содиқов Д. Замонавий АКТ - ўқув жараёнига//Халқ сўзи. 2014 йил 5 ноябрь.
8. Турсунов И. Илм - истиқлол чироғи // Маърифат. 1994 йил 30 март ва б.
9. Ўзбекистонда таълимнинг ривожланиш тарихи ва тарихшунослиги очерклар. "Tafakkur qanoti" Тошкент-2015. Б.215
10. Учение: внутреннее богатство. - Париж, 1996. - С.7. Жак Делор бошчилигидаги ЮНЕСКО Халқаро комиссиясининг XXI аср таълимига бағишланган ҳисоботи.